


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 7 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 7 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 7

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 7



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№7 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-7>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

1. **Mo‘minjon Salayev Atabayevich**
BAQTRIYA HUJJATLARIDAGI TURKIY ISMLAR VA ULARNING TARIXIY TALQINI.....7
2. **Tilovboyeva Mardona Aybekovna**
O‘RTA OSIYODA TOSH DAVRINING ILK BOSQICHI XUSUSIYATLARI.....19
3. **Акрамова Ф.А.**
СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН-РАБОТНИЦ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (1946-1960 ГГ.).....22
4. **Файзуллаев Мансур Хайруллаевич**
СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ КАРАКУЛЕВОДСТВА В ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ КОМПЛЕКСАХ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА И ЕЁ СИСТЕМНЫЕ ПРОБЛЕМЫ (1960-1980 ГГ.).....30
5. **Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
QO‘NG‘IROTTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI SIYOSIY ALOQALARI: SHAKLLANISHI, YO‘NALISHLARI VA TARIXIY AHAMIYATI.....37
6. **Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN DIPLOMATIK VA IJTIMOY-SIYOSIY MUNOSABATLARI.....47
7. **Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li**
“XORAZM OKRUGIDA YIRIK MEHNATSIZ XO‘JALIKLARNI TUGATISH TO‘G‘RISIDA”GI DEKRETNING TAHLILI.....56
8. **Kenjayev Hasan Atanazarovich**
XV-XVI ASRLARDA SAROY KUTUBXONASINI BOSHQARISH AMALIYOTI: “BADOYE’ UL-VAQOE” ASARIDAGI MANSUR MISOLIDA.....64
9. **Қадамбаев Ш.**
ЎРТА ЗАРАФШОНДА ТОШ ДАВРИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИНИ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ.....70
10. **Matkarimova Nazokat Maksudovna, Matnazarova Dilorom Radjabbaevna**
XORAZMLIKLARNING AN‘ANAVIY MADANIYATIDA OILA VA OILAVIY ETIKET.....73

IQTISOD

1. **Radjabova Mavluda Ergash Qizi**
MINTAQADA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI.....77
2. **Хусаинов Джахонгир Баходирович, Мухаммадсолиев Миродилжон Мирзохид угли**
КАСКАДНО-ЦИКЛИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ЦЕНООБРАЗОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМ РИСКОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ.....84

3. Matyakubov Umidjon Raximovich, Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi, Kodirova Feruza Sodiqjonovna	
TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI: STATISTIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL ASOSIDA.....	89

FILOLOGIYA

1. Adizova Surayyo Abduxoligovna	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOGNITIV TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISH TAMOIYILLARI (TIBBIY TERMINLAR MISOLIDA).....	97
2. Shoymardanova Dilfuza Baxtiyorovna	
ERKIN VOHIDOV ASARLARIDA SINTAKTIK PARALLELIZM VA POETIK INDIVIDUALLIK.....	103
3. Khudoyshekur Makhmudov	
TOURISM DISCOURSE AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH: A COMPARATIVE LINGUISTICS PERSPECTIVE.....	107

PEDAGOGIKA

1. Sh.E.Yakubova	
“OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI KOMPETENTLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”..	112
2. Kalandarova Madina Baxadirovna	
IJTIMOIIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDAGI AYOLLAR HAYOT SIFATI BILAN BOG'LIQLIGI.....	116
3. Kasimova Xulkar Atabayevna	
NOGIRON FARZANDLI TURLI YOSHDAGI ONALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA EMOTSIONAL O'ZINI-O'ZI NAZORAT QILISH O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LANISHLAR.....	120
4. Абибуллаев Арсен Редванович	
ОСОБЕННОСТИ ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕДУР СЕМИБОРОК В СТРУКТУРЕ ТРЕНИРОВОЧНОГО И СОРЕВНОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА.....	124
5. Шарипова Мадина	
ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ АДАПТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	129
6. Pulatova Zulfiya Abduazizovna	
OLIIY HARBIY TA'LIM DA KURSANTLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI BAHOLASH METODIKASINI HKT-INDEKSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	136
7. Xasanboyev Javohir	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA JADID PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	145

TARIX

Mo'minjon Salayev Atabayevich,

Ma'mun universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-6751-3351>E-mail: salayevmominjon0077@gmail.com**BAQTRIYA HUJJATLARIDAGI TURKIY ISMLAR VA ULARNING TARIXIY TALQINI**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21979663>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Shimoliy Afg'onistondan topilgan ilk o'rta asrlarga oid Baqtriya huquqiy hujjatlarida qayd etilgan turkiy shaxs ismlari va unvonlari tahlil qilinadi. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo tarixi asosan tashqi manbalar asosida tiklanadi. Bunday manbalar qatoriga Xitoy sulolaviy yilnomalari, Vizantiya, Pahlaviy, arman, suryoniy va hind yozma yodgorliklari kiradi. Ular mualliflarning siyosiy va mafkuraviy manfaatlari qolipida shakllangan. Baqtriya huquqiy hujjatlari esa mintaqaning o'zida, amaliy huquqiy ehtiyoj uchun yaratilgan xolis ichki manba hisoblanadi. Maqolada shu hujjatlar asosida Bay, Bek, Kera To'nga To'nga Spara, Chor, Tetuk, Elteber (Hilitber), Halas hamda Qutlug' Tapag'lig' Bilga Savug kabi turkiy antroponimlarning onomastik xususiyatlari va tarixiy konteksti o'rganiladi. Tahlil hun va turkiy asosli ma'muriy-siyosiy unvonlar asta-sekin shaxs ismlarining tarkibiy qismiga aylanganini ko'rsatadi. Shuningdek, Bek ismi atrofida besh avlodlik oila chizig'i kuzatilib, papponimiya hodisasi yoritiladi. Materiallar turkiy-baqtriy va turkiy-so'g'd aloqalari bilan bog'liq aralash onomastik muhitni aks ettiradi hamda turkiy ism va unvon an'anasining dastlabki bosqichini hujjatlashtiradi. Natijalar qadimgi turkiy va qadimgi uyg'ur tili bilan sezilarli uzviyliklarni namoyon etadi.

Kalit so'zlar: Baqtriya hujjatlari, turkiy shaxs ismlari, onomastika, unvonlar, ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyosi, turkiy-eroniy aloqalar, Sims-Williams, turkiy titulatura.

Муминджон Салаев Атабаевич,

независимый исследователь Университета Мамуна.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются тюркские личные имена и титулы, засвидетельствованные в раннесредневековых бактрийских правовых документах из Северного Афганистана. История раннесредневековой Центральной Азии реконструируется преимущественно по внешним источникам. К ним относятся китайские династийные хроники, а также византийские, пехлевийские, армянские, сирийские и индийские сочинения. Эти источники сформированы политическими и идеологическими интересами их авторов. Бактрийские правовые документы, напротив, представляют собой объективный внутренний источник, созданный в самом регионе для практических юридических целей. На основе этих документов анализируются ономастические особенности и исторический контекст таких тюркских антропонимов, как Бай, Бек, Кера Тонга Тонга Спара, Чор, Тетук, Эльтебер (Хилитбер), Халас и Кутлуг Тапаглыг Бильге Севюг. Анализ показывает, что

административные и политические титулы гуннского и тюркского происхождения постепенно становились неотъемлемой частью личных имён. Прослеживается также пятипоколенная родословная вокруг имени Бек, которая иллюстрирует явление паппонимии. Материал отражает смешанную ономастическую среду, отмеченную тюркско-бактрийскими и тюркско-согдийскими контактами. Он документирует раннюю стадию тюркской именной и титульной традиции.

Ключевые слова: бактрийские документы, тюркские личные имена, ономастика, титулы, раннесредневековая Центральная Азия, тюркско-иранские контакты, Симс-Уильямс, тюркская титулатура.

Muminjon Salayev Atabayevich,

Independent Researcher, Mamun University

ANNOTATION

This article examines Turkic personal names and titles attested in the early medieval Bactrian legal documents from Northern Afghanistan. The history of early medieval Central Asia is largely reconstructed from foreign narratives. These include Chinese dynastic annals as well as Byzantine, Pahlavi, Armenian, Syriac and Indian sources. Such accounts were shaped by the political and ideological interests of their authors. The Bactrian legal documents, by contrast, constitute an objective internal source produced within the region itself for practical legal purposes. On the basis of these documents the study analyses the onomastic features and historical contexts of Turkic anthroponyms such as Bay, Bek, Kera Tonga Tonga Spara, Chor, Tetuk, Elteber (Hilitber), Halas and Qutlug Tapaglig Bilge Sevüg. The analysis shows that administrative and political titles of Hunnic and Turkic origin gradually became integral components of personal names. It also traces a five-generation family line around the name Bek, which illustrates papponymy and the transmission of the male lineage. The material reflects a mixed onomastic milieu marked by Turkic-Bactrian and Turkic-Sogdian contacts. It documents an early stage of the Turkic naming and title tradition and shows notable continuities with Old Turkic and Old Uyghur.

Key words: Bactrian documents, Turkic personal names, onomastics, titles, early medieval Central Asia, Turkic-Iranian contacts, Sims-Williams, Turkic titlature.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar tarixi ko'pgina ilmiy-tarixiy adabiyotlarda ko'pincha "qorong'u davr" yoxud "noaniq davr" sifatida talqin etiladi. Mazkur tarixiy bo'shliqning yuzaga kelishi, asosan, mintaqadagi arab istilolari oqibatida ulkan miqdordagi yozma manbalar va madaniy yodgorliklarning yo'q qilib yuborilishi bilan izohlanadi. Bunga misol tariqasida Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya" asaridan olingan parchani ko'rsatishimiz mumkin. Unda "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimlarni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilgan edi"[36.122].

Bundan tashqari, o'tgan davr mobaynida birgina Turon hududining o'zida turlicha siyosiy mafkuralarga ega bo'lgan o'nlab davlatlar hukm surgan. Shu sababdan uzoq vaqt davomida tarixning qorong'i sahifalarini yoritib beruvchi ko'plab tarixiy asarlar umuman yo'qolib ketgan bo'lsa, ulardan ayrimlarining faqat ma'lum bir qismigina bizgacha yetib kelgan.

Shu boisdan ham, tarixshunoslikda ushbu davr voqeliklarini o'rganishda tadqiqotchilar asosan tashqi manbalarga — xususan, Xitoy sulolaviy yilnomalariga, Vizantiya elchilarining esdaliklariga, Pahlaviy (o'rta fors), suryoniy, arman hamda keyingi davrlarga mansub arab va fors manbalariga murojaat qilishga majbur bo'ladilar. Biroq, mazkur tashqi manbalar aksariyat hollarda hodisalarni sirtida turib, xorijliklar nigohi yoxud muayyan siyosiy manfaatlari doirasida yoritgani bois, mintaqaning ichki ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va etnik-madaniy manzarasini to'laqonli aks ettira olmaydi.

Misol uchun, Turonning ilk o'rta asrlar davri haqida ma'lumot beruvchi xitoy manbalari ham o'rta asrlar Xitoy hukumati bosh mafkurasini tashkil etgan sinotsentrizm va "samoviy mandat" konsepsiyasini ifodalaydi[4.420]. Unga ko'ra, dunyoning markazi hisoblangan Xitoyning

imperator i ilohiy qudratga ega (samo-osmon tomonidan tanlangan) hukmdor, boshqa davlatlardan kelgan elchilar hamda ular keltirgan sovg'a-salomlari esa tobelik (o'lpn) belgisi sifatida qabul qilingan.[17.123]

Vizantiya manbalari faktologik ma'lumotlardan tashqari, o'sha davrning geopolitik muhitini, siyosiy manfaatlarini va mualliflarning mafkuraviy qarashlarini ham aks ettiradi. Vizantiya imperiyasi VI asrda Sosoniylar imperiyasi bilan uzoq davom etgan geosiyosiy raqobatga kirishgan bo'lib, bu raqobat Sharq xalqlari haqidagi tasavvurlarning shakllanishida bevosita rol o'ynagan. Umuman olganda mazkur guruhdagi manbalarda Vizantiya muarrixlari Turon xalqlarini tasvirlashda quyidagi ikkita yo'nalish yetakchilik qiladi: 1) Turon xalqlarining harbiy kuchining haddan tashqari bo'rttirilishi; 2) tarixiy jarayonlarning ko'proq harbiy to'qnashuvlar orqali tushuntirilishi.[3.41]

Sosoniylar davriga (224-651-yillar) oid Pahlaviy manbalari o'z mazmuni, ideologik yo'nalishi va siyosiy-semiotik vazifasi jihatidan kuchli davlat mafkurasi ta'sirida shakllangan rasmiy matnlar hisoblanadi. Bu matnlar tarixiy voqealarni emas, balki hukmdor sulolasining legitimligini mustahkamlashni ko'zlagan; shu bois ularda siyosiy raqiblar "tartibni buzuvchi", "diniy dushman", "nopok kuch" sifatida yovuz obrazda tasvirlanadi.[3.43]

Arman muarrixlari asarlarini yaratgan davrda Armaniston hududi Vizantiya va Sosoniylar imperiyalari o'rtasida geosiyosiy raqobat markazida bo'lgan, shuning uchun diniy e'tiqod bilan siyosiy manfaatlarining mushtarakligi tabiiy jarayon edi. Bu hol arman manbalarining mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularda Sosoniylar ko'pincha zolim, majusiy va xristianlikka dushman sifatida tasvirlangan, Turon hududidagi davlatlar esa ayrim holatlarda aynan Sosoniylarni jazolovchi kuch sifatida talqin qilingan.

Turon xalqlari suryoniy manbalarida siyosiy kuch sifatida emas, balki Sosoniylarning mag'rurligi, adolatsizligi yoki nasroniylarga zulmi natijasida yuzaga kelgan oqibat sifatida ko'riladi. Bu talqin — suryoniy jamoaning siyosiy zaifligi, ochiq siyosiy baho berish imkoniyatining yo'qligi va tarixiy voqealarning diniy tilga tarjimasidir.

Hind manbalarida kidariylar yoki eftaliylar shafqatsizlik bilan tasvirlanishi, avvalo, ularning Hindiston shimolidagi shaharlarga qilgan hujumlari va Gupta siyosiy tizimining parchalanishiga sabab bo'lgan voqealar fonida shakllangan. Bāṇaning mashhur Harṣacharita asarida Hunalar "zulmkor, shafqatsiz, yo'lida uchragan hamma narsani vayron qiluvchi qorong'ulik kuchi" sifatida tilga olinadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni yaqqol ko'rsatadiki, ilk o'rta asrlar Turon xalqlari va davlatlari haqidagi ma'lumotlar asosan xorijiy muarrixlarning siyosiy, diniy va mafkuraviy yondashuvlari orqali hosil bo'lgan. Qayd etilgan tashqi manbalarning barchasiga xos bo'lgan umumiy kamchilik shundaki, ular mintaqani faqat yuqori siyosiy elita, harbiy to'qnashuvlar yoxud diniy ziddiyatlar fonidagina yoritadi. Bu esa o'sha davr jamiyatining asl ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi, kundalik turmush tarzi, huquqiy munosabatlari va etnik qiyofasi haqida obyektiv, xolis tasavvur uyg'otishga to'sqinlik qiladi.

Aynan shu sababli, yuzaga kelgan ulkan tarixiy va manbaviy bo'shliqni to'ldirishda hodisalarni chetdan emas, balki bevosita "ichkaridan" turib yorituvchi mahalliy yozma yodgorliklarning ahamiyati muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, bugungi Afg'onistonning shimoliy hududlaridan (tarixiy Baktriya / Tohariston vohasidan) topilgan, ilk o'rta asrlarga oid Baqtriya tilidagi huquqiy va xo'jalik hujjatlari Markaziy Osiyo tarixshunosligi uchun chinakam noyob kashfiyot hisoblanadi.

Tarixiy jarayonlarni o'z siyosiy va diniy manfaatlarini qolipiga soluvchi Vizantiya, Xitoy hamda Fors yilnomalariga nisbatan, mazkur huquqiy yodgorliklar mutlaqo xolisligi bilan ajralib turadi. Ular ilk o'rta asrlar jamiyatining real ijtimoiy-huquqiy turmush tarzini (oldi-sotdi, nikoh, ijara, soliq va meros amaliyotini) bevosita dalillovchi eng ishonchli birlamchi manbalardan biridir.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Baqtriya tilidagi huquqiy hujjatlar ustida olib borilgan ilmiy izlanishlar 2000-yillardan e'tiboran keng qamrovli filologik va tarixiy yo'nalish kasb etdi.

Bu sohadagi deyarli barcha izlanishlar uchun asos va boshlang'ich nuqta bo'lib London universitetining professori Nikolas Sims-Uilyamsning uch jildlik "Shimoliy Afg'onistondan topilgan Boxtar hujjatlari" nomli asari xizmat qiladi. Asarning birinchi jildi 2001-yilda nashr etilgan bo'lib, unda huquqiy va iqtisodiy hujjatlar transkripsiyasi va ingliz tiliga tarjimai berilgan[23]. Ikkinchi jildi 2007-yilda nashr etilgan. Unda maktublar va buddizmga oid matnlar tahlil va talqin qilingan[24].

2012-yilda to'plamning uchinchi jildi nashr etilgan. Unda hujjatlar rasmlarini taqdim etish bilan birga, ularning saqlanayotgan kolleksiyasi, sanasi (sanalar ko'rsatilgan qo'lyozmalar uchun), formati va satrlar soni, shuningdek, nashrlari (shu jumladan, tegishli maqolalar) haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan katalog kiritilgan[25].

Boxtar hujjatlari teri, mato va yog'och taxtachalarga yozilgan. Professor Nikolas Sims-Uilyams ularni 4 turkumga ajratgan. Bular: 1. Huquqiy hujjatlar; 2. Analogik, sanasi aniq bo'lmagan hujjatlar; 3. Ro'yxatlar va hisobotlar; 4. Yog'ochdagi yozuvlar. Boxtar hujjatlari asosan oldi-sotdi dalolatnomalari, yer mulkini meros qoldirish, soliq to'lash, qul savdosi dalolatnomasi va tilxatlar, sarf-xarajat hisobotlari hamda yagona namuna sifatida saqlanib qolgan nikoh shartnomasidan iborat. Birinchi jilddan o'rin olgan huquqiy hujjatlar xronologik tartibda ingliz alifbosi harflari asosida "A" dan "Z" gacha shartli ravishda belgilangan. Bitta yilda yozilgan ikkita hujjat "A" va "Aa" tartibida joylashtirilgan. Hujjatlarda 110-yildan to 549-yilgacha bo'lgan sanalar qayd etilgan[18.72].

Keyingi yirik tadqiqot eronlik olim Husayn Shayx Bo'stonobodga tegishli bo'lib, u 2017-yilda Gyttingen universitetida "Boxtar huquqiy hujjatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Uning tadqiqotlari asosan Boxtar huquqiy hujjatlariga, ularning formulalari, terminologiyasi va tarixiy kontekstini o'rganishga bag'ishlangan. [21]

Yuqorida keltirilgan yirik asarlarni hisobga olmaganda, Boxtar hujjatlarini o'rganish asosan kichik hajmli maqola va tezislardan iborat. Ularda mahkamachilik, sud-huquq, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yetakchiligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, eronlik olim Xudoydod Rizoixoniyning "Balx va Sosoniylar: Boxtarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini aks ettirgan Shimoliy Afg'onistondagi Boxtar hujjatlari" nomli maqolasida mintaqada huquqiy tizim va shartnoma tuzish amaliyotlari, hokimliklar va ularning davlat boshqaruvidagi o'rni, Eftaliylar davrida Boxtar va Sug'd o'rtasidagi savdo aloqalarining yo'nalishlari, iqtisodiy bitimlar, soliq yig'ish amaliyoti va boshqa muhim masalalar o'rin olgan.[20.2-7]

Yana bir eronlik olim Said Rizo Husayniy o'zining "Boxtar hujjatlarida qulchilik" nomli maqolasida qulchilikka oid ikkita asosiy hujjatni – qulning o'zini sotib olishi haqidagi ozodlik yorlig'i (470-yil) va ocharchilik davrida bir bolaning qullikka sotilishi haqidagi shartnomani (669-yil) – batafsil tahlil qiladi. U hujjatlardagi qullikka oid huquqiy atamalar, shartlar va ijtimoiy masalalarni tahlil qilgan. [9.685]

Taniqli ingliz tangashunos olimi Jo Kribbning ham bu boradagi xizmatlarini alohida qayd etib o'tish lozim. U Nikolas Sims-Uilyams bilan hamkorlikda "Rabatak" tosh yozuvlarini o'rgangan va nashr ettirgan. Uning tadqiqotlari Boxtar erasini (Bactrian Era) aniqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etgan[28].

Fransiyalik taniqli eronshunos va islomshunos olim Fransua de Bluaning ishlari ham hujjatlarni davrlashtirishga alohida e'tibor qaratgan. Uning Nikolas Sims-Uilyams bilan birgalikda yozilgan "Shimoliy Afg'onistondan topilgan Boxtar hujjatlarini davrlashtirish" nomli monografiyasi Boxtar hujjatlarining murakkab davrlashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda Boxtar taqvimi va "Boxtar erasi" muammolari chuqur tahlil qilingan[29].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Baqtriya matnlarida qayd etilgan shaxs ismlari hamda onomastik birliklar ilk bor Nikolas Sims-Uilyams tomonidan 2010-yilda nashr etilgan "Baqtriya shaxs ismlari" nomli maxsus katalog-tadqiqotda umumlashtirilgan. Mazkur hujjatlarda uchrovchi turkiy etimologiyaga ega unvonlar va unvonli ismlar masalasi esa Agusti Alemani tomonidan 2021-yilda birmuncha tadqiq etilgan.[27; 1]

Baqtriya huquqiy hujjatlarida aks etgan shaxs ismlarini izchil tadqiq etish nafaqat ilk o'rta asrlardagi turkiy-eroniy etnomadaniy aloqalarni, balki qadimgi turklarning ism qo'yish

(antroponimika) va unvon berish an'analarining dastlabki amaliy namunalarini anglashda g'oyat muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda turkiy shaxs ismlariga shunchaki tilshunoslik dalil sifatida emas, balki mintaqaning etnik, siyosiy va madaniy qiyofasini qayta tiklash imkonini beruvchi muhim tarixiy dalil sifatida yondashiladi.

Hujjatlar tarkibidagi turkiy onomastik birliklar tizimi tahlil qilinganda, ism yasashida asosan ma'muriy-siyosiy unvonlarning yetakchi o'ringa chiqqanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, matnlarda qayd etilgan **yabg'u**, tarxon, tudun, tigin, eltabar, qunchuy va cho'pon kabi turkiy kelib chiqishga ega bo'lgan mansab-unvonlar jamiyatdagi ijtimoiy iyerarxiyani hamda elitaga xos siyosiy hokimiyat tizimini bevosita aks ettiruvchi muhim huquqiy-ijtimoiy ko'rsatkichlar sanaladi.

Baqtriycha	Hujjat turi	Turkiycha	Sana (Milodiy)
σωπανο	K	cho'pon	579
χαγανο	N, Q, Y	xoqon	629, 671, 771–772
ιτιοτβηρο	Tt, U, W	eltabar / ilteber	705/712–713/747
ενηλο	N	inal	629
καγανο	N, Q, Y	xoqon	629, 671, 771–772
χινζαιο	T	xonim / malika	700
ταπαγαληγιο ιτιοτβηρο	N, P, Q	tapag'lig' eltabar	629, 669, 671
ταρχανο	N, P, Q, jg	tarxon	629, 669, 671, ?
ταγγιο, τιγνο	ag, ai	tegin / tigin	?
τονγα	Y	to'nga / to'ga	771–772
ταδονο, ταδανο	S, Uu	tudun	693, 722
ιαβγο	eh, ja, jb	yabg'u	?

1-jadval. Baqtriya hujjatlarida uchraydigan turkiy kelib chiqishli unvonlar

Yuqoridagi unvonlarning bir qismi keyingi davrlarda ham turkiy shaxs ismlarining tarkibiy unsuri sifatida qo'llanilgan. Bu holat qadimgi turkiy tilda davom etgan nom qo'yish an'anasini aks ettiradi. Quydagi jadvalda esa ushbu maqolada tadqiq etilayotgan turkiy shaxs ismlarining baqtriycha shakllari, qadimgi turkiy muqobillari, mazkur ismlar uchraydigan hujjatlar hamda ularning taxminiy sanalari umumlashtirilgan.

Baqtriycha	Turkiycha o'qilishi	Hujjat turi	Sana (mil.)
χαλασο	Halaj	P	669
βηκο	Bek	T, U, W, X, Y	700, 712–713, 747, 750, 771–772
βαγοαζιασο	Bag-aziyas	T	700
χοτολογο ταπαγλιω βιλγανο σαβουο	Qutlug' Tapag'lig' Bilga Savug	T	700
βαιο (ριζμο)	Bay (Bay-rizm)	U	712–713
υλιτοβηρο	Iltabar	U, W	712–713, 747
τητοκο	Tetuk	af	?
κηρανο τογγανο	Kera-tonga	Y	771–772
τογγανο σπαρανο	Tonga-spara	Y	771–772

2-jadval. Baqtriya hujjatlarida uchraydigan turkiy ismlar

Baqtriya tilidagi atoqli otlar imlosida ma'lum bir istisnalar uchrasa-da, huquqiy hujjatlar korpusida shaxs ismlarining izofa qurilmasisiz shakllantirilgani barqaror tilshunoslik hodisasi sifatida kuzatiladi. Mazkur an'anaga ko'ra, antroponim (ism), unvon hamda etnik yoxud urug' mansubligini bildiruvchi unsurlar o'zaro hech qanday sintaktik bog'lovchisiz, teng bog'lanishli usulda yonma-yon qo'llaniladi. Natijada yozma matnda shaxsning ijtimoiy va kelib chiqish maqomini to'liq oydinlashtiruvchi yaxlit identifikatsion ta'rif yuzaga keladi. Bu hodisa, ayniqsa, yuqori ijtimoiy tabaqa vakillarining unvonlar tizimida yorqin namoyon bo'ladi:

αγοαζιασο στορογο τοροσανζο οισλογδο χοτολογο ταπαγλιο βιλγανο σαβοουο χινζωιο χαλασανο οισλογδο καδαγοστано φινζο [T2/1–2]

(Tarjimasi: “... buyuk turk malikasi, Qutlug‘ Tapag‘lig‘ Bilga Savugning qunchuyi, Xalach malikasi, Kadagston xonimi Bag-aziyas...”)

Mazkur hujjatda asosiy shaxs nomi (Bag-aziyas) atrofida uning ijtimoiy mavqeyi (buyuk malika, qunchuy), etnosiyosiy mansubligi (Xalach) hamda hududiy maqomi (Kadagston xonimi) uzviy ketma-ketlikda joylashib, yagona onomastik butunlikni hosil qilgan. Bunday parataktik tuzilmani yaxlit tilshunoslik birlik sifatida tahlil etish nafaqat ism tarkibidagi qismlarning morfologik-formal xususiyatlarini, balki shaxsning jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy o‘rnini ham aniq tasavvur qilishga xizmat qiladi. Quyida Baqtriya huquqiy hujjatlarida uchraydigan turkiy antroponimlarning o‘ziga xos onomastik jihatlari va namoyon bo‘lish xususiyatlari aniq misollar yordamida ochib beriladi.

1.βαιο (“Bay”)

Hujjatlarda qayd etilgan βαιο (“Bay”) erkak ismi so‘g‘d onomastikasida uchraydigan qator shaxs ismlari bilan tipologik parallellik kasb etadi. Xususan, so‘g‘dcha β’y s‘nkwn- /Bay Saġun/ ismidagi “bay” unsuri Pavel Lure (11:135) tomonidan bevosita turkiy manba bilan bog‘langan. E’tiborlisi shundaki, turkiy “bay” leksemasi J. Klousonning etimologik lug‘atida ‘boy, badavlat kishi’ ma’nosida izohlangan bo‘lsa (2: 384), qadimgi uyg‘ur bitiklarida Bay Buqa (erkak ismi) hamda Bay Xotun (ayol ismi) kabi qo‘shma antroponimlarning asosiy tarkibiy qismi sifatida faol ishtirok etgan (33: 152). N. Sims-Uilyams (27: 44) Baqtriya hujjatlaridagi βαιο shakli aslida murakkab tuzilishga ega qo‘shma ismning qisqartirilgan (gipokoristik) varianti bo‘lishi ehtimolini ilgari suradi. Bu esa mazkur lisoniy unsur Baqtriya muhitida mustaqil ism sifatida ham, ism yasovchi faol komponent sifatida ham muomalada bo‘lganini ko‘rsatadi.

βαιο (“Bay”) ismi milodiy 436-yilning Ab oyida, Vad kunida Lizg shahrida rasmiylashtirilgan yer oldi-sotdi hujjatida quyidagicha qayd etiladi:

(1) μισιδο μανο βαιο ιωζο πορο οδο μανο χαιο οδο μανο ιωζο οδο μανο οανακο χοασο πορανο λιζγοσιγο ακιδομηνο καδαγο νανανο ραζινδο [Nn/11–13]

(Tarjimasi: “Endi: men Bay, Yoz o‘g‘li, hamda men Xay, men Yoz va men Vanak — barchamiz Xvas o‘g‘illari, Lizg shahri aholisi, Nanan deb atalgan xonadon egalari — shuni e’lon qilamiz...”)

Matndagi onomastik qurilishga e’tibor qaratsak, “Bay” ismi shaxsning ota nomi (Yoz o‘g‘li) bilan yondosh holda keltirilib, so‘ngra uning aka-ukalari (Xay, Yoz, Vanak) hamda umumiy urug‘-nasab belgisi (Xvas o‘g‘illari) qatorida sanab o‘tilgan. Bu — yuqorida ta’kidlangan parataktik identifikatsiya usulining oddiy ijtimoiy qatlam (fuqarolar) doirasidagi tipik ko‘rinishidir. Ya’ni hujjatda shaxs bir vaqtning o‘zida o‘zining ismi, otasining nomi, urug‘i va istiqomat qiladigan maskani orqali belgilab berilgan.

Bu o‘rindagi eng diqqatga sazovor xususiyat shundan iboratki, “Bay” so‘zi hech qanday ijtimoiy unvon yoki mansab vazifasini bajarmayapti, balki mutlaqo sof antroponim sifatida ishtirok etmoqda. Ushbu dalil turkiy “bay” unsurining Baqtriya ijtimoiy-madaniy muhitiga chuqur singib, mahalliy aholining ism qo‘yish an’anasiga (antroponimiyasiga) to‘laqonli o‘zlashib ketganligini tasdiqlaydi.

Baqtriya huquqiy hujjatlarida βηκο “Bek” ismi uchraydigan matnlar birgalikda tahlil qilinganda, besh avlod davomida izchil kuzatib boriladigan yagona oila tarixi namoyon bo‘ladi [28:37]. Bu holat Baqtriya diplomatikasining nafaqat lingvistik-onomastik, balki prosopografik manba sifatidagi qiymatini ham ko‘rsatadi: bitta antroponim turli hujjatlarda qarindoshlik zanjiri orqali bog‘lanib, mahalliy zodagon-ruhoniy oilaning nasabnomasini tiklash imkonini beradi.

Bek (I) ilk bor 700-yilning iyun–iyul oylarida buyuk turk kunchuyi, Xalach malikasi, Kadagstan xonimi Bag-aziyas tomonidan chaqalog‘ining shifo topgani munosabati bilan tuzilgan bag‘ishlov hujjatida — kohin Kamird-farning otasi sifatida zikr etiladi:

(2) ασο βαγο καμρδο σασκο καμρδοφαρο βηκο πορο κηδο πιδο βανοζινυαγγο ζαοο κιδο λαρσιγγο σταδο οδο μορδδιου ταδομο ασο καμρδο βαγο στορογο οηζο οδο οαρσοχοδανο λιδο κιδδηιο παρσο ζονδδιου οδο δδρογο κιρδο [T1/2–4]

“Kamird xudosining inoyati bilan, Bek o‘g‘li Kamird-far ismli kohin vositasida, o‘lim to‘shagida kasal yotgan sulola chaqalog‘ining hayoti uchun buyuk qudrat va mo‘jiza namoyon bo‘ldi...”

712/713-yilga oid hujjatda esa yuqorida tilga olingan Bek (I) o‘g‘li Kamid-far va uning o‘g‘li **Bek (II)** Vadam-stan nomli uzumzorni abadiy mulk kabi muddatsiz foydalanish sharti bilan ijaraga oluvchi taraflar sifatida keladi:

(3) ... βηκο καμιδοφαρο πορο οδαβοφαγο καμιδοφαρο βηκο πορο ... κιδο οαδαμοστανο ναμο [U/5–6]

“...senga, Kamid-far o‘g‘li Bek, va senga, Bek o‘g‘li Kamid-far — Vadam-stan deb atalgan muayyan uzumzor bizniki bo‘lib qolishi sharti bilan (ijaraga berildi)...”

Uch hujjatning birgalikdagi guvohligi antroponimik jihatdan alohida ahamiyatga ega. Ism avlodlar bo‘ylab almashinib takrorlanadi: Bek (I) → Kamird-far → Bek (II), ya‘ni bobo ismi nevarasida qayta tiklanadi. Bu — turk va eron onomastik an‘analarida keng tarqalgan papponimiya (bobo nomini nevaraga berish) hodisasining aniq namunasidir va turkiy bek unsurining muayyan oila doirasida barqaror, naslban uzatiluvchi ism sifatida mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Muhimi shundaki, bu o‘rinlarda bek birorta rasmiy unvon vazifasini bajarmaydi; u ruhoniy-yerdor oilaning sof shaxsiy ismi bo‘lib, turkiy leksemaning Baqtriya ijtimoiy-lisoniy muhitida to‘la o‘zlashib, mahalliy nasl-nasab an‘anasiga singib ketganidan dalolat beradi.

750-yil mart–aprelga oid hujjatda **Bek (II)**ning to‘rt o‘g‘li — Kamird-far (II), Bab, Vahran va Mir tilga olinadi hamda bu o‘g‘illar o‘rtasida nizolar bo‘lgani qayd etiladi:

(4) μισιδο μανο καμιρδοφαρο οδο μανο βαβο βηκο πορνο αλοφαγο οαυρανο οδαλοφαγο μιρο οοχωρ σταδο οδο μαχο μαρδο ασο μαρδο νιψμαρο σταδο ωσο μαχο δογγο πιδαγγηραδο ακιδο μαχο οοχορτιο ναβαρτιδο οδο χανο ναβτιο ναβαρτιδο [X/3–6]

“Endi: men Kamird-far va men Bab, Bekning o‘g‘illari, sen Vahran va sen Mir bilan bir nizo yuzaga keldi; o‘zaro bir-birimizdan shikoyatlar qilgan edik. Endi oramizda quyidagicha yarashuv tuzildi: bundan buyon bir-birimiz bilan nizolashishimiz shart emas, xonadonimizni buzishimiz ham shart emas.”

Xuddi shu hujjatda Kamird-far (II)ning **Bek (III)** va Xamir ismli ikki o‘g‘li ham zikr etiladi:

(5) ακιδο δανομανο μαρδο ζιγο βηλαδδου κιδο αλο μανο καμιρδοφαρο οδαλο μανο βαβο οδαλο ταοο οαυρανο οδαλο ταοο μιρο [οδαλο βηκο οδαλο χαμιρο καμιρδοφαρο πορανο] οδαλο μαχαγγο βραδο πορο φροζινδδινανο κιδο ναρσο ασο μαχο κφδαδο ταδο πιδο γοστο γωλανο ασο χανο αβηιοβαγο ροαδο [X2/22–25]

“Zarar yoki qonunga zid (xatti-harakat) kim tomonidan sodir etilsa — men Kamird-far, men Bab, sen Vahran, sen Mir, yoxud Kamird-farning o‘g‘illari Bek va Xamir, yoki boshqa aka-ukalarimiz, o‘g‘illarimiz yohud nabiralarimizdan biri tomonidanmi — qay birimiz qilgan bo‘lsak ham, o‘sha kishi uydan ulushsiz chiqadi.”

Har ikki avlodda takrorlanuvchi **βηκο** ismiga **αβο μηιαμο βηκο πορο** “Bek o‘g‘li Meyamga” (je/1) deb boshlanuvchi sanasiz baqtriy maktubida ham duch kelinadi [24: 130–131]. Bu o‘rinda zikr etilgan shaxs Bek (I)ning yana bir o‘g‘li bo‘lishi mumkin deb taxmin qilingan bo‘lsa-da [27: 46], paleografik dalillar maktubning ancha erta davrga taxminan 470-yil atrofiga oidligini ko‘rsatib, bu qarashni zaiflashtiradi [27: 39].

κηραυ τογγαυο τογγαυο σπαραυ “Kera To‘nga {To‘nga} Spara”

Kera To‘nga {To‘nga} Spara ismining yozilishida ikki marta takrorlangan To‘nga tufayli noaniqlik mavjud. Agar bu takror yozuv xatosi bo‘lsa, **κηραυο** shakli turli hujjatlarda shaxs ismi sifatida qayd etilgan κηραο ismining varianti sifatida baholanishi mumkin [26: 144]. Boshqa tomondan, Kera To‘nga voliy (hokim) nomi, To‘nga Spara esa xoqon nomi bo‘lishi ehtimoli ham ilgari surilgan [25:144]. N. Sims-Uilliams **κηραυ** so‘zining kelib chiqishi noaniqligini, uning turkiy yoki eron tillari bilan aniq bog‘lanmasligini ta‘kidlaydi [27: 78]. Shunga qaramay, bu ism qadimgi uyg‘ur turkchasi matnlarida uchraydigan K(a)ra To‘nga erkak ismi bilan o‘xshashlik ko‘rsatadi (Wilkens 2021: 334). To‘nga / to‘ngga “qahramon” ma‘nosini bildiruvchi so‘z turkiy kishi ismlarida komponent sifatida qo‘llanganda “qahramon, saralangan jangchi” ma‘nosiga ishora etishi mumkin [2:515]. Ismning ikkinchi tarkibiy qismi **σπαραυ** esa turkiy antroponimlarda uchraydigan

Ishvara bilan bog'lanishi mumkin. J.Klausonning fikricha, bu unurning manbayi sanskritcha īśvara “hukmdor, shahzoda” so'zi bo'lib, u ehtimol to'xtar tili vositasida turkiyga o'tgan [3: 257]. Ishvara baqtriy matnlaridagi kabi qadimgi uyg'ur turkchasida ham erkak ismi sifatida qayd etilgan.

771/772-yil may oyiga oid buyruq hujjatida mashhur, farovon xoqonning voliyasi, Kadagliklar shohi Kera To'nga To'nga Spara ismi quyidagicha keladi:

πιδο ναμο ιεζιδασο κηραυοτογγαυο τογγαυοσπαραυο ναμοοινδαδο αβζοδοφαραυο χαγαυο καδγοβιδο καδγαυο βαυο [Y/1–3]

“Xudo nomi bilan! Kera To'nga To'nga Spara, mashhur, farovon xoqonning voliyasi, Kadagliklar shohi...”

σωρο “Chor”

Baqtriy matnlarida uchraydigan **σωρο**, so'g'd matnlaridagi **cwr** va turkiy chor o'rtasida parallellik ko'rinadi (27: 133–134). **ck'yn cwr βyδk'** /Chegin Chor Bilga/ misolidagi kabi, chor so'g'd matnlarida hukmdor oilasining yosh a'zolari uchun ishlatilgan turkiy chor unvoni bilan bog'lanadi [10: 161, 167]. O'rta eron tillariga oid ismlarda ko'p qo'llaniladigan bu ism/unvon, shuningdek, to'xtar, xotan, xitoy, tibet va shor tillarida ham qayd etilgan [14: 171]. J.Klausonning fikricha, chor turkiy matnlarda juda kam uchraydigan turk unvoni bo'lib, xitoy manbalarida odatda cho shaklida keladi. Bir chor xoqondan pastroq, ammo bekdan yuqoriroq mavqega ega bo'lgan ko'rinadi [2: 427]. Bu ism unsuri qadimgi uyg'ur turkchasi davrida ham Chor Bars, Chor Tirek kabi erkak ismlarida uchraydi [3: 238].

675-yil 21-yanvarda, Gaz shahrida, Andar hududida mol yoki mulk nizosini yakunlagan sud yozuvi Valax xalqining boshlig'i Sor huzurida bitilgan:

μανο παπο αλαφαγο καναγο οδαλαφαγο μωιανο οδαλαφαγο φινζολαδο αχασο οδο λαδοβαριγο σταδο οτομηνο πισο σωρο οαλαχοσιγο καροοαλο γοβαδο οδομηνο σαχοανο οδο ιαχασο αματο οδομο χοησαοο λαδδηιο πιδο Δαγογγο ιαοαρο κοαδασο μανδορονιγο ρωσο οδασο μαβαρο ζαμανο [R/8–12]

“...Men Pap, sen Kanag, sen Moyan va sen Finz-lad bilan bir nizo va da'vo bo'ldi. Bu da'vo Valax xalqining boshlig'i Sor huzurida hal etildi. Da'vo va nizoimiz nihoyasiga yetdi. Men Pap, sizlarga quyidagi shartlar bilan majburiyat oldim. Bugundan boshlab va kelajakning barcha zamonlarida...”

729-yil may–iyunda, Rizm shahrida, Kah qal'asida tuzilgan sotuv hujjatida Sor — Spandagan mulkining egasi va Rizm satrapidir:

(9) οδο πισο σωρο σπανδαγανο χοδδηοο ριζμο βαραβο οδο πισο μισο ναμαχονδο ωδαγοσιγο ζαδοκαρο ακιδο οαλο πιδο μιλαγγο αρμαστινδο οδασιμο σαχοανο ζανινδο καλδο πιδοοασαδο χογαμο οδο χοσινδο λαδο οδο παραλαδο μανο αβσιωο οδο μανο σωρο οδο μανο οαχβοβορδο οδο μανο μηιαμο οαυρανο πορανο ακιδαμηνο χανο σπανδαγανο ραζινδο ρωβοχαρο μαρηγο [V/3–7]

“...Rizm satrapi va Spandagan mulkining egasi Sor huzurida hamda o'sha yerda hozir bo'lib, bu masalaga guvohlik beruvchi mahalliy erkin kishilar huzurida — Vahranning o'g'illari men Absih, men Sor, men Vaxsh-burd va men Meyam (bizning xonadonimiz Spandagan deb ataladi va biz Rob xarining xizmatkorlarimiz) — bilib va istab berish hamda sotish uchun shartnoma tuzilayotganda bu masalaga guvohlik beradilar...”

380-yil iyul–avgustga oid qadimgi bir hujjatda esa Kerav janobi o'z mulkidan Soras, Aspad va yana bir kishiga oltmish to'rt o'lchov don ulashgan. **σωρασο** “Soras” — σωρο ismiga kichraytirish yoki erkalash qo'shimchasi -σο qo'shilib yasalgan yangi ism bo'lishi mumkin [25: 133].

τητοκο “Tetuk”

Baqtriy matnlarida **τητοκο** Tetuk erkak ismi kichraytirish yoki erkalash qo'shimchasi -κο ni o'z ichiga oladi deb hisoblanadi [27: 136]. So'g'd matnlaridagi **tytyk** /Tetig/ ismini P.Lurje turkiy tetig “zukko, tez anglaydigan” so'zi bilan bog'lagan [11: 403]. J.Klausonning lug'atida tetik shakl jihatidan tet- fe'lidan yasalgan ot/sifat bo'lib, ma'no jihatidan bu fe'l bilan aniq bog'lanmaydi, biroq tetil- “zukko, tez anglaydigan” so'zi bilan yaqin aloqada turadi [2: 455].

Baqtriy matnlarida **τητοκο** ismi uchraydigan hujjatlarda sana qaydi yo'q. Birinchi misol sanasiz ro'yxatdan, qolganlari esa maktub satrlaridan olingan:

ασο ασταχίρσο τητοκο μαρδο β' (af1)

“Astaxirsdan, Tetukdan: ikki kishi.”

Αβο τητοκο αδοροφαρνιγανο χοηο υαζαρο βηοαρο λροδο ναμωσο ασο βορζοιμυρο χαρανο χοβο μαργγο (bh/1–2)

“Tetuk Adurfarnigan janobiga ming va o'n ming (minglab) salom hamda xizmatkoringiz Burz-mihr Xahrandan hurmatlar.”

αβο τητοκο φρμιο βραδο λρουδο ναμωσο ασο ναοαζο (cn/1–2)

“Tetukka, sevimli akam; Nawazdan salom va hurmat.”

Αβο τητοκο λροδο ν[αβισο] ασο σαβτο χαρανο οισβ[οργο] (xc/1–2)

“Tetukka ko'p salom; shoh Sart Xahrandan.”

υλιτοβηρο “Eltabar / Hilitbar”

Baqtriya huquqiy hujjatlarida ham unvon, ham shaxs ismi sifatida keladigan **υλιτοβηρο**, Shimoliy Afg'onistondan topilgan arab hujjatlarida **l-rtbyl** shaklida shaxs ismi sifatida ham qayd etilgan (27: 139–140). Qadimgi turkiy lug'atda **eltabar** “oliy hukmdorga tobe qabila boshliqlariga nisbatan qo'llaniladigan unvon” deb ta'riflanadi [2: 134]; qadimgi uyg'ur turkchasida **el(i)tber** va **elt(e)ber** shakllarida uchraydi. Bu unvon Baqtriya hujjatlarida unvon sifatida ham, ko'proq esa shaxs ismi sifatida qo'llanilgan.

629-yil, Samingan hududida, Sandaranda bitilgan majburiyat shartnomasida **υλιτοβηρο** “eltabar” turkiy unvon sifatida ko'rinadi:

μαλαβο σαμινγανο ωδαγο αβο σανδαρανο αβο ρωβοχαραγγο αλβαρο πισο φραμαριζμο βραβορανο ιαβζοδοφαρανο χαγανο ταποαγλιγο υλιτοβηρο ρωβοχαρο παροπαζο χοδδηο οδο πισο χολχανο ιενηλο ταρχανο οιλαργανο χοδηο οδο πισο σορηνο ρωβοχαρανο φραμαλαρο [N1/1–10]

“...Samingan hududida, Sandaranda, Rob xari mahkamasida, farovon Xoqonning Tapag'lig' Eltabari, Rob xari, Parpaz begi Framarizm Shaburan huzurida, Inal Tarxon, Vilargan begi Xulxan huzurida va Rob xarlarining yordamchisi Suren huzurida bitildi.”

705-yil 23-iyulda, Lizgda xizmat evaziga tuzilgan qul bag'ishlash hujjatida **υλιτοβηρο** “Hilitbar” Lizg xalqining boshlig'i sifatida keladi:

πισο βαγο οαχβο βαγανο βανο λαδοιανο λαδοα[γα]λ[γ]ο κιδαβο λιζγο νιβλμινδο οδο πισο υλιτοβηρο λιζγο καροοαλο οδο μισο πισο μαν{αν}δαρουανισο ζαδοβοργανο οαγαλφανο [Tt/3–5]

“...xudolar shohi, ezgulik ato etuvchi va tilaklarni ushlaydigan Vaxsh xudosi huzurida — uning maskani Lizgda — hamda Lizg xalqining boshlig'i Hilitbar huzurida, va o'sha yerda hozir bo'lgan boshqa erkin kishilar va guvohlar huzurida...”

712/713-yilda, Madr hududida tuzilgan dehqonchilik va ijara shartnomasida Hilitbar bu o'rinda shaxs ismi sifatida keladi:

μανο οαχβομαρηγο ορωλανο οδο μανο ορωλο οδο μανο υλιτοβηρο αβοφαγο βηκο καμιδοφαρο πορο οδαβοφαγο καμιδοφαρο βηκο πορο πιδο δαγογγο ιο(ο)αρο κιδανο αστηιο μαχο ροζγο ιωγο κιδο οαδαμοστανο ναμο [U1/4–6]

“...men Vaxsh-mareg Urolan, men Urol va men Hilitber bilan sen Kamid-far o'g'li Bek va sen Bek o'g'li Kamid-far o'rtasida, Wadam-stan nomli uzumzor bizniki bo'lib qolishi shartlari bilan shartnoma tuzilayotganda...”

747-yil avgust–sentabrda, Gandarda bitilgan sotuv shartnomasida Hilitber yana shaxs ismi sifatida keladi:

μανο οορωλο οδο μανο υλιτοβηρο βανο πορανο οδο μανο ζαρδο οορωλο πορο γανδαριγο χοιαχο ακιδομο χανο οορωλανο γιρλινδο ρωβοχαρο μαρηγο πιδο δογγο ιαοαρο [W1/5–7]

“...Bahning o'g'illari men Vurol, men Hilitbar bilan Rob xarining xizmatkori, Vurolning o'g'li, Gandarning oqsoqoli men Zard (mening xonadonim Vurolan deb ataladi) o'rtasida, quyidagi shartlar bilan bilib va istab berish hamda sotish uchun shartnoma tuzilayotganda...”

χαλασο “Halas”

Baqtriy tilida 669-yilga oid hujjatda etnik ism sifatida ham qayd etilgan Halas ismi turkiy Xalach jamoasi nomidan kelib chiqqan [27: 146–147]. Halas — qul sotish hujjatida zikr etilgan bir o'g'il boladir:

οδο φαρο ταμαχαγγο βραδο πορο φορζανδανο βαλακο ά χ[οβο] μηνο βραδδικο ειο βαλακο ασιδο χαλασο ναμδο ταδδηιο αβο σοδο οιγνο δδριγδο ναμο βιαδο αβο δδραχμο παρσαγγο γ' [P2/11–13]

“...senga, sening aka-ukalaring, o'g'illaring, nabiralaringga o'z akamiz kabi bir o'g'il bolani — to'kinlikda (va) qahatchilikda saqlab qololmaganimiz, Halas ismli bu o'g'il bolani — 3 parsang dirhamga sotdik.”

χοτολογο / χοτολο ταπαγλιο βιλγανο σαβονο “Qutlug' Tapag'lig' Bilga Savug”

χοτολογο / χοτολο ταπαγλιο βιλγανο σαβονο / σαβοονο “Qutlug' Tapag'lig' Bilga Savug” ismi Qutlug' Tapag'lig' va Bilga Savug degan ikki qismdan tuzilgandek taassurot qoldiradi. U turkiy **qutlug'** “qutli, baxtli, saodatli” [2: 601], **tapag'lig'** “hurmatga sazovor, ulug'” [2: 438], bilga “bilimdon, dono kishi; maslahatchi” [2: 340], **savug** “sevuvchi, sevimli” [2: 340] tarkibiy qismlaridan iborat. 700-yil iyun–iyulga oid, buyuk turk kunchuyi, Xalach malikasi, Kadagstan xonimi Bag-aziyas tomonidan tuzilgan hujjatda uning turmush o'rtog'i Qutlug' Tapag'lig' Bilga Savugning ham ismi keladi:

αχφονο υ' ο' η' μανο βιδδιονωσαρδο καλδο μανο βαγοαζιασο στορογο τοροσανζο οισλογδο χοτολογο ταπαγλιο βιλγανο σαβονο χινζωιο χαλασανο οισλογδο καδαγοστανο [T1/1–2]

“Endi, men Bag-aziyas, buyuk turk Kunchuyi, Qutlug' Tapag'lig' Bilga Savugning rafiqasi, Xalach malikasi, Kadagstan xonimi...”

750-yil mart–aprelga oid hujjatda Bekning o'g'illari Kamird-far, Bab, Vahran va Mir o'rtasidagi nizo Vargun xalqining egasi, Kadagstan qo'shinining sarkardasi Savug'lug' huzurida yakunlangan:

πισο αζοδδηβιδο σαβολινο οαργονανο χοδδηιο καδαγοστανο σπαλοβιδο οδο πισο μισο βαρυο ωδασυο αζαδοκαρνο κιδο οαλο πιδο μιλαγγο αρμαστινδο οδασιμο σαχονο ζανινδο [X/2–3]

“...Vargun xalqining egasi, Kadagstan qo'shinining sarkardasi Savug'lug' huzurida va nazoratida, shuningdek o'sha yerda hozir bo'lgan mahalliy va erkin kishilar huzurida bitildi.”

Yuqoridagi hujjatlar tahlili ko'rsatadiki, Baqtriya huquqiy yozuvlarida turkiy ismlar va bu ismlarni tashigan shaxslarning ijtimoiy mavqeyi aniq tarzda kuzatiladi. Shunga o'xshash misollar yaxlit holda olinganda, bu ma'lumotlar nafaqat sud jarayonlarini, balki kengroq ijtimoiy-tarixiy zaminni aks ettirishi ma'lum bo'ladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dastlab sof ma'muriy-siyosiy unvon sifatida qo'llanilgan turkiy unvonlar vaqt o'tishi bilan transformatsiyaga uchrab, kishi ismlarining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib ketgan. Xususan, yabg'u, tarxon, tudun, tigin, eltabar, qunchuy, cho'pon kabi hun yoxud qadimgi turkiy etimologiyaga daxldor bo'lgan mansab-unvonlarning matnlarda ham mustaqil maqom belgisi, ham ism yasovchi komponent sifatida faol ishtirok etishi — qadimgi turk va uyg'ur davrlari yozma yodgorliklarida ko'zga tashlanadigan “ism-unvon” sintetik birikuvining g'oyat ilk tarixiy bosqichini o'zida aks ettiradi.

Ushbu nomlash an'anasi keyinchalik uyg'ur matnlarida Bilga, Savug, Bag'atur, Bukla singari onomastik birliklar orqali o'zining mantiqiy davomini topgan.

Shu bilan birga, Baqtriya hujjatlarida keltirilgan kishi ismlari turkiy-baqtriy hamda turkiy-so'g'd etnomadaniy aloqalarining chuqur izlarini o'zida tashiydigan aralash onomastik makon mavjudligidan dalolat beradi. Baqtriya matnlaridagi **σωρο (soro)**, so'g'd bitiklaridagi **cwr** hamda turkiy yodgorliklardagi **chor** leksemalari misolida yaqqol ko'rinib turganidek, ba'zi antroponimlar bevosita turkiy unvonlar bilan aloqador bo'lgan

Hujjatlardagi turkiy kishi ismlari orasida etnik mansublikka ishora qiluvchi ismlar ham diqqatga sazovor. **χαλασο** “Halas” shaklida qayd etilgan va Xalach etnonimidan kelib chiqqan misol qul sotish shartnomasida kichkina o'g'il bolaga berilgan ism sifatida uchraydi; shu tariqa hududdagi turk jamoalaridan biri ham etnik ism, ham kishi ismi darajasida iz qoldirganini ko'rsatadi. Buyuk turk kunchuyi, Xalach malikasi, Kadagstan xonimi kabi unvon va etnik

belgilovchilar bilan birga olinganda, Baqtriya huquqiy hujjatlari turkiy ismlarning nafaqat lisoniy, balki etnik va ijtimoiy maqom belgisi sifatida ham vazifa bajarganini oshkor etadi.

Xulosa qilib aytganda, Baqtriya huquqiy hujjatlarida qayd etilgan turkiy kishi ismlari ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoning ko'p tilli va ko'p madaniyatli muhitida turkiy ism qo'yish va unvon an'anasining dastlabki bosqichlarini hujjatlashtiradigan muhim ma'lumotlar to'plamidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alemany A. Hunnic and Turkic titles in the Bactrian documents // *Beiträge zur Geschichte und Kultur des alten Iran und benachbarter Gebiete: Festschrift für Rüdiger Schmitt* (Oriens et Occidens, Bd. 36). – Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 2021. – P. 13–28.
2. Clauson G. *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish* (EDPT). – Oxford: Oxford University Press, 1972.
3. Daryaee T. *The Fall of the Sasanian Empire and the End of Late Antiquity*. – P. 41.
4. Dingxin Zh. The Mandate of Heaven and performance legitimation in historical and contemporary China // *American Behavioral Scientist*. – 2009. – №53. – P. 420–424.
5. Erdal M. *A Grammar of Old Turkic*. – Leiden: Brill, 2004.
6. Erdal M. *Old Turkic Word Formation I–II: A Functional Approach to the Lexicon*. – Wiesbaden: Otto Harrassowitz Verlag, 1991.
7. Feng L. *Bureaucracy and the State in Early China*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – P. 26–27.
8. Gholami S. *Selected Features of Bactrian Grammar*. – Wiesbaden: Otto Harrassowitz Verlag, 2014.
9. Huseini S. R. *Slavery Represented in Bactrian Documents // Slavery & Abolition*. – 2023. – №44. – P. 682–696.
10. Lurje P. *Khamir and other Arabic words in Sogdian texts // Islamisation de l'Asie centrale: Processus locaux d'acculturation du VIIe au XIe siècle*. – Paris, 2008. – P. 29–57.
11. Lurje P. B. *Personal Names in Sogdian Texts* (Iranisches Personennamenbuch, Bd. II, Fasz. 8). – Wien: Verlag der ÖAW, 2010.
12. Malta K. *Greko-Baktriya ve Eski Türk hukuk belgeleri*. – İstanbul: Nobel Yayınları, 2022.
13. Malta K. *Rabatak ve Orhon Yazıtlarının Karşılaştırmalı Anlam Alanı İncelemesi // FSM İlmî Araştırmalar İnsan ve Toplum Bilimleri Dergisi*. – 2022. – №19. – B. 269–286.
14. Naveh J., Shaked Sh. *Aramaic Documents from Ancient Bactria (Fourth Century B.C.E.) from the Khalili Collections*. – London, 2012.
15. Özbay B. *Maniheist Uygur metinlerinin envanterinin hazırlanması: Yayımlanmamış yüksek lisans tezi*. – İstanbul: Yıldız Teknik Üniversitesi, 2010.
16. Özbay B. *The Paleographical Analysis of the Manichean Script for Middle Iranian and Old Uyghur Texts*. – İstanbul: Kriter Yayınları, 2024.
17. Pankenier D. *The Cosmo-Political Background of Heaven's Mandate // Early China*. Vol. 20. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995. – P. 123–124.
18. Rajapov M. *Bactrian documents found in Northern Afghanistan as a historical source // Academic Literature Journal of Social Sciences Research (AKALİD)*. – 2025. – Vol. 3, №3. – P. 65–80.
19. Rezakhani Kh. *The Bactrian Collection: an Important Source for Sasanian Economic History // e-Sasanika*. – 2008. – №13. – P. 1–14.
20. Rezakhani Kh. *Balkh and the Sasanians: the Economy and Society of Northern Afghanistan as Reflected in the Bactrian Economic Documents // Ancient and Middle Iranian Studies*. 6th European Conference of Iranian Studies. – Wiesbaden: Harrassowitz, 2010. – P. 1–14.
21. Sheikh H. *Studies of Bactrian Legal Documents: For the Degree of Doctor of Philosophy*. – Göttingen, 2017.
22. Sheikh H. *Studies of Bactrian Legal Documents*. – Leiden: Brill Publications, 2023.

23. Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan. I: Legal and Economic Documents. – Oxford: Oxford University Press, 2001.
24. Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan. II: Letters and Buddhist Texts. – London, 2007.
25. Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan. III: Plates. – London, 2012.
26. Sims-Williams N. Bactrian Language // *Encyclopædia Iranica*. – 2011.
27. Sims-Williams N. Bactrian Personal Names (*Iranisches Personennamenbuch*, Bd. II, Fasz. 7). – Wien: Verlag der ÖAW, 2010.
28. Sims-Williams N., Cribb J. A New Bactrian Inscription of Kanishka the Great // *Silk Road Art and Archaeology*. – 1995/96. – №4. – P. 75–142.
29. Sims-Williams N., de Blois F. The Bactrian Calendar // *Bulletin of the Asia Institute*. – 1998. – №10. – P. 149–165.
30. Sims-Williams N., de Blois F. The Bactrian Calendar: New Material and New Suggestions // *Languages of Iran: Past and Present. Iranian Studies in memoriam David Neil MacKenzie*. – Wiesbaden, 2006. – P. 185–196.
31. Sims-Williams N., de Blois F. *Studies in the Chronology of the Bactrian Documents from Northern Afghanistan*. – Wien: Verlag der ÖAW, 2018.
32. Tezcan S. 8. yüzyılda Afganistan'da Halaç prensesleri, günümüzde Orta İran'da Halaçlar ve dilleri // *Hacettepe Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi*. – 2018. – B. 231–254.
33. Wilkens J. *Handwörterbuch des Altuigurischen (Eski Uygurcanın el sözlüğü)*. – Göttingen: Universitätsverlag Göttingen, 2021.
34. Wilkens J. *Manichäisch-Türkische Texte der Berliner Turfansammlung (Alttürkische Handschriften, Teil 8)*. – Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 2000.
35. Артамонов М. И. История хазар / Под ред. Л. Н. Гумилёва. – Ленинград: Издательство Государственного Эрмитажа, 1962. – С. 105.
36. Ражапов М. Труд Беруни «Осор ул-бакия» является важным источником для изучения истории эпохи Афригов // *Library*. – 2024. – №1. – С. 122–125.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorda ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].